



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

YAPON VA O‘ZBEK TILLARIDA 主題 (shudai-mavzu) VA 主語 (shugo-ega)
KATEGORIYALARINING QIYOSIY TAHLILI

Matsuo Toshiko

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, o‘qituvchi

Norboboyev Rahmiddin Bahodir o‘g‘li

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, magistr

Annotatsiya

Ushbu maqolada agglyutinativ tillar sirasiga kiruvchi yapon va o‘zbek tillaridagi gapning mantiqiy-grammatik qurilishi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy markazida yapon tilidagi 主題 (shudai-mavzu) va 主語 (shugo-ega) kategoriyalari hamda ularning o‘zbek tilidagi funksional analoglarini aniqlash masalasi yotadi. Maqolada har ikki tilning “mavzu markazli” (topic-prominent) xususiyatlari til va kognitiv nuqtai nazardan ochib beriladi. O‘zbek tilida maxsus mavzu ko‘rsatkichlari bo‘lmasada, ohang, so‘z tartibi va yuklamalar orqali yaponcha “va” bilan “ga” farqlanishiga o‘xshash mazmuniy chegaralar yaratilishi isbotlanadi. Shuningdek, til strukturasi so‘zlovchi dunyoqarashiga ta’siri va voqelikni idrok etishdagi qiyosiy jihatlari atroflicha yoritiladi. Tadqiqot xulosalari qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik sohasida nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: 主題 (shudai-mavzu), 主語 (shugo-ega), aktual bo‘linish, kognitiv tilshunoslik, yapon tili, o‘zbek tili, pragmatika.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИЙ 主題 (СЮДАЙ — ТЕМА) И 主語 (СЮГО —
ПОДЛЕЖАЩЕЕ) В ЯПОНСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Мацуо Тошико

Узбекский государственный университет мировых языков, преподаватель

Норбобоев Рахмиддин Баходир угли

Узбекский государственный университет мировых языков, магистрант

Аннотация

В данной статье проводится сравнительный анализ логико-грамматической структуры предложения в японском и узбекском языках, относящихся к агглютинативным языкам. В центре исследования находятся категории 主題 (shudai — тема) и 主語 (shugo — подлежащее) в японском языке, а также проблема определения их функциональных аналогов в узбекском языке. В статье с лингвистической и когнитивной точек зрения раскрываются особенности «тематически ориентированных» (topic-prominent) языков в обоих языках. Несмотря на отсутствие в узбекском языке специальных показателей темы, доказывается, что с помощью интонации, порядка слов и служебных элементов создаются смысловые разграничения, сходные с различием японских частиц «wa» и «ga». Кроме того, подробно рассматривается влияние языковой структуры на мировоззрение носителя и особенности восприятия действительности в сопоставительном аспекте. Выводы исследования могут служить теоретической основой для сравнительного языкознания и перевода.

Ключевые слова: 主題 (shudai — тема), 主語 (shugo — подлежащее), актуальное членение, когнитивная лингвистика, японский язык, узбекский язык, прагматика.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CATEGORIES 主題 (SHUDAI — TOPIC) AND 主語
(SHUGO — SUBJECT) IN THE JAPANESE AND UZBEK LANGUAGES

Matsuo Toshiko

Uzbekistan State World Languages University, Teacher

Norboboyev Rahmiddin Bahodir o‘g‘li

Uzbekistan State World Languages University, Master’s student

Abstract

This article presents a comparative analysis of the logical-grammatical structure of sentences in Japanese and Uzbek, both of which belong to the agglutinative language group. The primary focus of the research is the identification of the categories of 主題 (shudai-topic) and 主語 (shugo-subject) in Japanese

and their functional analogues within the Uzbek language. The study explores the “topic-prominent” characteristics of both languages from linguistic and cognitive perspectives. It is demonstrated that, although the Uzbek language lacks specific topic markers, semantic boundaries similar to the Japanese “wa” and “ga” distinction are created through intonation, word order, and particles. Furthermore, the article examines the influence of language structure on the speaker’s worldview and the comparative aspects of perceiving reality. The findings of this research serve as a theoretical resource in the fields of comparative linguistics and translation studies.

Keywords: 主題 (shudai-topic), 主語 (shugo-subject), Information structure, Cognitive linguistics, Japanese language, Uzbek language, Pragmatics..

Dunyo tillarini tipologik jihatdan tasniflashda yapon va o‘zbek tillari o‘zlarining o‘xshash va farqli jihatlari bilan tilshunoslar e’tiborini tortib keladi. Har ikki til lisoniy qurilishiga ko‘ra agglutinativ (lot. *agglutinatio* — yopishtirish) tillar sirasiga kiradi. Agglutinatsiya hodisasi so‘z o‘zagiga grammatik ma’no va munosabat bildiruvchi qo‘shimchalarning birin-ketin qo‘shilishi bilan xarakterlanadi. Bu jarayonda so‘z o‘zagi o‘zgarmaydi, har bir qo‘shimcha esa, odatda, faqat bitta grammatik vazifani bajaradi. Yapon va o‘zbek tillari o‘rtasidagi bu tipologik yaqinlik nafaqat so‘z yasalishi va turlanishida, balki sintaktik sathda — gapda so‘zlar tartibining nisbatan barqarorligi (asosan SOV — Subject–Object–Verb / ega–to‘ldiruvchi–kesim modeli) va yordamchi so‘zlar tizimining rivojlanganligida ham namoyon bo‘ladi. Biroq, bu o‘xshashliklarga qaramay, gapning mantiqiy-grammatik markazini belgilashda ushbu tillar turlicha yo‘ldan boradi.

主題 (Shudai) va 主語 (Shugo) — ikki xil dunyoqarash

Yapon tili grammatikasining tamal toshi bu — 主題 (mavzu) va 主語 (ega) o‘rtasidagi farqdir. G‘arb tillarida va biz o‘rgangan an’anaviy grammatikada bu ikki tushuncha ko‘pincha bitta “ega” (subject) tushunchasiga birlashtiriladi. Biroq yapon tilida ular mutlaqo boshqa-boshqa vazifalarni bajaradi.

主語 (Shugo — ega) grammatik tushuncha bo‘lib, bevosita fe‘l, ya’ni harakat bilan bog‘lanadi. U gapda asosan が (ga) yuklamasi orqali ifodalanadi. Uning asosiy vazifasi “Kim yoki nima harakat qildi?” degan savolga javob berishdir. Shuningdek, u yangi ma’lumotni taqdim etish vazifasini bajaradi.

主題 (Shudai — mavzu) esa muloqot doirasini belgilaydi. Gapda は (va) yuklamasi orqali ifodalanadi. Uning vazifasi “Keling, mana shu narsa haqida gaplashamiz” deb suhbat maydonini tayyorlashdir. Mavzu ma’lum ma’lumotni kontekstga olib kiradi.

Kanaya Takahiro o‘zining “日本語が世界を平和にする それだけの理由” asarida shunday deydi: “Yapon tilida ega (subject) mavjud bo‘lishi majburiy emas, chunki u tabiatga va vaziyatga suhbatdosh bilan bir xil nuqtadan qaraydi”. Ya’ni, は (va) — insonlarni birlashtiruvchi umumiy maydon, が (ga) esa o‘sha maydondagi alohida detaldir.

Misol 1:

公園は桜がきれいです

Kouen wa sakura ga kirei desu.

Bu yerda は (va) — “bog‘” (*kouen*) atrofni suhbatdoshlar uchun umumiy maydon, ya’ni sahna qilib belgilaydi. Biz bog‘ning ichidamiz. が (ga) esa shu bog‘ning ichidagi alohida detalga, ya’ni “sakura”ga diqqatni qaratadi. So‘zlovchi bog‘ning go‘zalligini tashqaridan hakam kabi baholamaydi, balki bog‘ning bir qismi sifatida sakura bilan bog‘liq hayratini baham ko‘radi.

O‘zbek tilida ega (主語) va mavzu (主題) munosabati

Tilshunoslikda ega (subject) va mavzu (topic) tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ular aynan bir xil hodisa emas. Bu farq o‘zbek tilida ham kuzatiladi.

O‘zbek tilida ega gapning grammatik markaziy bo‘lagi bo‘lib, u harakat bajaruvchisini bildiradi va kesim bilan shaxs-son kategoriyasida moslashadi.

Misol 2:

Men boryapman.

Bu gapda “men” — harakat subyekti bo‘lib, kesim (“boryapman”) bilan moslashgan. Shu sababli o‘zbek tili, ko‘plab tillar singari, subject-prominent xususiyatga ega deb qaraladi.

Shu bilan birga, o‘zbek tilida mavzu (topic) tushunchasi ham mavjud bo‘lib, u gapning aktual bo‘linishi (tema–rema) doirasida ifodalanadi. Bu tushuncha tema–rema tuzilishi bilan bevosita bog‘liq. Mavzu (tema) — gapda oldindan ma’lum yoki muhokama markaziga chiqarilgan qism bo‘lib, qolgan qism

(rema) aynan shu mavzu haqida yangi ma'lumot beradi.

O'zbek tilida mavzuning ifodalanish usullari

O'zbek tilida mavzu yapon tilidagidek maxsus grammatik ko'rsatkich, masalan, は yuklamasi orqali emas, balki quyidagi vositalar orqali ifodalanadi.

1. Leksik-grammatik vositalar (yuklamalar)

O'zbek tilida 主題 (mavzu) kategoriyasini shakllantiruvchi leksik-grammatik vositalar yapon tilidagi は (va) yuklamasining to'g'ridan-to'g'ri funksional muqobillari hisoblanadi. Bu vositalar gapning grammatik egasini (主語) shunchaki aniqlab qolmay, unga "global kontekst" maqomini beradi.

Yapon tilida は (va) yuklamasining asosiy funksiyalaridan biri kontrast, ya'ni solishtirish yaratishdir. O'zbek tilidagi "esa" yuklamasi va "...ga kelsak" konstruksiyasi aynan shu vazifani bajaradi.

Misol 3:

Men bilan singlim maktabga keldik.

Akam esa uyda qoldi.

Sizga kelsak, bu masala boshqacha.

Yuqoridagi gaplarda "Akam" va "Siz" so'zlari shunchaki harakat bajaruvchisi emas. Bu vositalar ushbu tushunchalarni umumiy massadan ajratib, alohida muhokama maydoniga olib chiqadi. Bu yapon tilidagi 「兄は」 (*ani wa*) konstruksiyasining funksional muqobilidir. Bu yerda "Akam" — gapning sahnasi, "uyda qolishi" esa o'sha sahna ichidagi voqelikdir.

2. Intonatsiya

O'zbek tilida yapon tilidagi は (va) yuklamasining vazifasini ko'pincha ohang (intonatsiya) va mantiqiy to'xtam (pauza) bajaradi. Bu yerda intonatsiya shunchaki nutqiy bezak emas, balki gapning ma'noviy markazini — 主題 (mavzu)ni belgilovchi asosiy vositadir.

Misol 4:

Akam... u bugun kelmaydi.

"Akam" so'zidan so'ng qo'yilgan to'xtam tinglovchining diqqatini "muzlatadi". Bu yapon tilidagi 「兄は...」 (*ani wa...*) dan keyingi qisqa pauza bilan funksional jihatdan aynan bir xildir. Bu orqali so'zlovchi suhbatdoshiga: "Hozirgi xabar aynan mana shu shaxs haqida bo'ladi", degan signalni beradi.

"Akam" qismi yuqori ohangda aytilib, gapning mavzusini (topic) sahnaga olib chiqadi. Gapning qolgan qismi ("u bugun kelmaydi") esa o'sha mavzu haqidagi yangi ma'lumotni (rema) tashkil etadi.

3. So'z tartibi (inversiya)

O'zbek tilidagi erkin so'z tartibi yapon tilidagi 主題 (mavzu) kategoriyasini ifodalashda eng samarali sintaktik vositalardan biridir. Yapon tilida は (va) yuklamasi bajaradigan vazifani o'zbek tilida gap bo'laklarining gap boshiga ko'chishi, ya'ni inversiya hodisasi amalga oshiradi.

Misol 5:

Bu kitobni men kecha o'qidim.

Ushbu gapda grammatik ega "men" bo'lsa-da, gapning mantiqiy markazi, ya'ni mavzusi "bu kitobni" bo'lagidir. Inversiya natijasida odatda ega va kesim orasida keladigan to'ldiruvchining gap boshiga chiqarilishi yaponcha 「この本は...」 (*kono hon wa...*) konstruksiyasining funksional muqobilidir. Bu orqali so'zlovchi suhbatdoshiga: "Keling, aynan shu kitob haqida gaplashamiz", degan signalni beradi.

O'zbek tilida so'z tartibi shunchaki erkinlik emas, balki gapning aktual bo'linishini tartibga soluvchi mexanizmdir. Gap boshiga chiqarilgan har qanday bo'lak o'sha gapning 主題 (shudai) markaziga aylanadi va yapon tilidagi は (va) yuklamasi bajaradigan lisoniy yukni o'z zimmasiga oladi.

Xulosa

Yapon va o'zbek tillaridagi 主題 (mavzu) va 主語 (ega) kategoriyalarini tahlil qilish natijasida quyidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlandi.

O'xshash jihatlar: Har ikki til agglyutinatativ tuzilishga ega bo'lgani sababli, kontekstual bog'liqlik kuchli. Agar gapning mavzusi avvalgi jumladan ma'lum bo'lsa, u tushirib qoldirilishi mumkin. Shuningdek, har ikki tilda ham subyektning, ya'ni shaxsning markazda bo'lmasligi va voqelikni vaziyatga bog'liq holda tasvirlash unsurlari mavjud.

Farqli jihatlar: Yapon tili qat'iy "mavzuga yo'naltirilgan" (topic-prominent) til bo'lib, unda muloqot markazida "Nima haqida?" degan tushuncha turadi. O'zbek tili esa ko'proq "egaga yo'naltirilgan" (subject-prominent) strukturaga ega. Ya'ni, o'zbek tilida gapning grammatik ustuni ko'pincha ega (主語)

hisoblanadi, mavzu esa ko‘pincha u bilan mos keladi yoki uning tarkibida beriladi.

Ifodalanish vositalari: Yapon tilida mavzu va ega は (va) hamda が (ga) kabi qat’iy vositalar orqali chegaralanadi. O‘zbek tilida esa yaponcha mavzu yuklamasining vazifasini intonatsiya (pauza), so‘z tartibi (inversiya) hamda “esa”, “-chi”, “-ga kelsak” kabi stilistik vositalar bajaradi. Biroq o‘zbek tilida bu vositalar qat’iy grammatik qoida emas, balki so‘zlovchining mantiqiy urg‘u berish ehtiyojiga asoslangan ixtiyoriy tanlovidir.

O‘zbek tilidagi 主題 (mavzu) kategoriyasini yapon tilidagi kabi gap qurilishining asosi deb bo‘lmaydi, biroq ularni funksional jihatdan qiyoslash mumkin. Yapon tilidagi は (va) va が (ga) munosabatini o‘rganish o‘zbek tili sintaksisidagi yashirin imkoniyatlarni — so‘z tartibi va ohangning naqadar quvvatli “mavzu yaratuvchi” vosita ekanligini anglashga yordam beradi. Ushbu maqola o‘zbek tilshunosligida yapon tili modellari asosida yangi qiyosiy tadqiqotlar ochish uchun poydevor bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kanaya T. Nihongo ga sekai o heiwa ni suru kore dake no riyū. – Tokyo: Shueisha, 2019.
2. Kindaichi Haruhiko. Nihongo. – Vol. 1–2. – Tokyo: Iwanami Shoten, 1988.
3. Mikami Akira. Zō wa hana ga nagai: Nihongo no kōbun. – Tokyo: Kurosio Publishers, 1960.
4. Mahmudov N. O‘zbek tilidagi gapning aktual bo‘linishi. – Toshkent: Fan, 2004.
5. Kuno Susumu. The Structure of the Japanese Language. – Cambridge: MIT Press, 1973.